

Abdulla Qodiriy ijodida millati va milliy o'zlik masalasi

Termiz davlat universiteti
Iqtisodiyot va turizm fakulteti
3-kurs talabasi Madatova Mahliyo

Annotatsiya

Ushbu maqolada A.Qodiriy ijodidagi millatparvarlik, yurt qayg'usi va milliy qadryatlarimiz badiiy funksionalligi haqida so'z boradi. Zero, A.Qodiriy o'z asarlari bilan o'sha paytda yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda katta hissa qo'shgan.

Kalit so'zlar: Qodiriy ijodi, O'tgan kunlar, vatanparlik, milliy o'zlik masalasi.

Kirish. Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyotida o'z o'rniiga ega adiblardan biri. Bugungacha uning asarlari kitobxonlarning sevimli, shu sababli adib ijodiga bir qancha o'zbek olimlari va ijodkorlari o'z fikrini bildirgan va o'rgangan. Adib adabiyotga „Juvonboz“ hikoyasi bilan kirib keladi. Albatta bular adabiyotdagi ilk urinishlar va tajribalar edi. Shu sababli ushbu hikoya bo'yicha bir qancha tanqidiy fikrlar mavjud. Xususan, bu asar Oybek tomonidan „quruq bir til, xalq tilidan juda uzoqda“ kabi fikrlar bilan tanqid qilingan. Biroq Qodiriyning tinimsiz mehnatlari va izlanishlari natijasida uning asarlarida adib mahoratining o'sganligi yaqqol ko'rina boshladi. Darhaqiqat, bir qancha vaqtdan keyin e'lon qilingan „Uloqda“ hikoyasini „tirik, obrazli bir til“ deya ta'riflangan. Qodiriy haqida boshqa olimlarning ham fikrini ko'rishimz mumkin. Xususan, M.Muhamedov „mening nazarimda , Abdulla Qodiriy o'sha paytda o'z tili va mahorati bilan boshqalardan ajralib turadigan so'z san'atkori ekanini ko'rsatgan edi“ kabi qarashlarini bayon etgan edi. Ko'plab qodiriyshunoslar adibning badiiy til mahoratiga tan berishgan. Hatto,,O'tgan kunlar“ni ayamay tanqid qilgan Sotti Husayn ham adibning „o'zbek adabiy tilining takomillashida katta xizmati bor“ligini ta'kidlagan.

Qodiriy ijodini nafaqat o'zbek olimlari balki, chet el olimlari ham o'rgangan. Xususan, adabiyotshunos E.Nabi adib asarlarining janr xususiyatlari, millatparvarlik g'oyalari va qadryatlarini o'rgangan. Bundan tashqari adib ijodini amerikalik va angliyalik E.Olvort, A.Beningsin, E.Uimbush, Robet J.Barret, D.Montgomeri, G.Morris, H.Battersbininglar O'rta Osiyon o'rganishga bag'ishlangan izlanishlarida bayon etgan. Hozirgi kunda ham adib ijodi o'rganilmoqda. Xususan, amerikalik tadqiqotchi Mark Riz Abdulla Qodiriyning „O'tgan kunlar“ asarini ingliz tiliga tarjima qilish uchun 15 yil umrini sarflagan.

Asosiy qism. XX-asr adabiyotining shakllanishida Abdulla Qodiriy asarlari katta o'rinni egallaydi. Zero, adib o'zbek romanchiligining asoschisi sanaladi. Biroq Abdulla Qodiriy o'z asarlari bilan faqatgina o'zbek adabiyotida yangi yo'naliш boshlab bermadi, balki yosh avlodning o'zligini anglashiga ham yordam bergan. Bu borada, ayniqsa, adibning,, O'tgan kunlar'' romani muhim o'rinni egallaydi. Ushbu asarni adib 1919-yil yoza boshlagan. 1922-yil,,Inqilob'' jurnalida romanning dastlabki parchalari chop etilgan. 1925-yil II bo'lim, 1926-yilda III-bobi nashr etilgan.

Adib o'z asarlari haqida:,,Yozmoqg'a niyatlanganim ushbu - „O'tgan kunlar'', yangi zamon ro'monchiligi bilan tanishish yo'lida kichkina bir tajriba, yana to'g'risi bir havasdir. Ma'lumki, har bir ishning ham yangi – ibtidoiy davrida talay kamchiliklari bilan maydonga chiqishi, ahllarining yetishmamlari ila sekin-sekin tuzalib, takomulga yuz tutishi tabiiy bir holdir. Mana shuning daldasida havasimda jasorat etdim, havaskorlik orqasida kecha turgan qusur va xatolardan cho'chib turmadim. Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik deydilar. Shunga ko'ra mavzuni moziydan, yaqin o'tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlarida bo'lg'an keyingi „xon zamonlari''dan belguladim'', - deydi.

O'tgan Kunlar haqida

Darhaqiqat, xon zamonida va mustabid tuzum davrida xalqning ahvoli ayanchli tarzda edi. Xalq bir tomondan xonlarning cheksiz xoxish-istiklaridan jabr ko'rsa, ikkinchi tomondan mustamlakachilik zulmidan qiynalardi. Adib esa o'z asarlari bilan mudrab yotgan xalqni uyg'otishga harakat qildi. Bunga misol qilib oladigan bo'lsak, Otabekka savdogar kasbi tanlanishi. Kasbi tufayli Otabek boshqa shaharlarga ham borar va ularning iqtisodiy va siyosiy ahvoldan yaxshi xabardor edi. Adib aynan Otabekning ko'zi bilan xonlarning va davlat ayonlarining asl yuzini ko'rsatmoqchi bo'lgan. Bundan “O'tgan kunlar” faqatgina sevgi-muhabbat asari emasligini ko'rishimiz mumkin. Bu asar nafaqat, o'sha davr ijtimoiy tizimini ifoda etgan, balki insonlarning xulq-atvorini ham ko'rsatib bergan. Asarning boshi va oxirining o'ziga uning o'zgacha ruhda yozilganini, katta mano kasb etganini ko'rsatadi. Xususan, adib asar boshini shom vaqt va qish fasli bilan boshlaydi. Aynan o'sha vaqtida Otabekning karvonsaroyda ekanligi tilga olinadi. Atrofdan shom azoni eshitilganligi haqida so'z boradi. Asarning tugashida esa “O'zbek oyim qora kiyib, ta'ziya ochdi” jumlalarini ko'rishimiz mumkin. Shu jumlalarining o'zidayoq katta mano bor. Bular Sobiq Ittifoq tomonidan bo'ladigan noxo'shliklar haqida ogohlantirish edi. Darhaqiqat, 1937-1938-yillardagi voqealar ko'pchilik insonlarning o'limiga sababchi bo'ldi, bazilarni qora kiyishiga majbur bo'ldi.

Asar qahramonlaridan biri Kumushni adib suyib-suyib tasvirlagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Hatto Otabekdan ham ortiq sevganmikan deb o'ylash mumkin. Aks holda Otabekni muhabbatini bu qadar tasvirlay olmasdi. Ammo Qodiriyning Kumushga muhabbatini aslida vatanga deya tushunsak bo'ladi. Asar boshida Kumush xasta edi, Otabekning muhabbati unga malham bo'ldi. Bundan shuni anglash mumkinki, o'sha paytlardagi inqiroz va mustabid tuzum sababli vatan xastalangan, uni faqatgina mard va jasur o'g'lolnargina qutqarishi va xalos etishi mumkin. Asar oxirida Kumush halok bo'ladi. Bunga sabab oddiygina ayollar o'rtasidagi rashk deb qarab bo'lmaydi. Otabekning ikki ayoliga birdek mehr bermagani va teng ko'ra olmagani ham Kumushning o'limiga sabab bo'lgan. Bundan xonlarning mamlakatdagi turli qabilava urug'larga birdek munosabatda bo'limgani ular o'rtasida turli xil nifoqlarga sabab bo'lishi va inqirozning kelib chiqishiga sabab bo'lishini anglash mumkin.

Abdulla Qodiriylasarlari bilan faqatgina vatanparlik va milliy uyg'onishni chorlab qolmagan, balki, urf-odatlarimiz va qadryatlarimizni ham ko'rsatib bergen. Xususan, Kumush va Ranoning go'zalligiga, latofatiga va ibo-hayosiga hozirgi kunda ham ko'pchilik qizlar havas qiladi. Aynan mustabid davrda yo'qolib borayotganda o'zligimizning qayta uyg'onishiga ham ushbu obrazlar katta rol o'yndaydi.

Xulosa. Malum bo'ladiki, Qodiriylasarlarda xalqni uyg'onishga chorlagan. Bu ayniqsa yosh avlodga katta tasir ko'rsatgan. Undagi har bir so'z va jumla o'zida katta mano kasb etadi. Ehtimol shu sabablidir ko'pchilikning muhabbatiga sazovar bo'lgandir. Zero, birgina O'tgan kunlar asari qo'lma-qo'l o'qildi, navbat kutib o'qildi. Asardan ko'pchilik vatanparlik tuyg'ularini oldi. Ammo bularga Sovet tuzumi jimgina qarab tura olmas edi. Shu sababli ham adib bevaqt vafot etdi. Biroq adibning asarlari, qilgan ishlari va xotiralari hamon yashamoqda. Xalqimiz bunday vatanparvar insonlarni aslo unutmadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

- <https://oz.sputniknews-uz.com/20190410/abdulla-qodiriylasarlari-boyligida-22340395.html>
- <https://saviya.uz/hayot/nigoh/abdulla-qodiriylasarlari-boyligida/>
- <https://tafakkur.net/abdulla-qodiriylasarlari-boyligida/>
- <https://bilimlar.uz/abdulla-qodiriylasarlari-boyligida-1894-1938/>